ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

UDK: 910.3
ORCID: 0009-0005-9461-8542

ABDIMO'MINOV TOG'OYNAZAR ABDINAXAT O'G'LI,
Termiz davlat pedagogika instituti
E-mail: togoynazarabdimominov@gmail.com

SURXONDARYO VILOYATI TABIIY SHAROITIGA TIBBIY GEOGRAFIK TAVSIF

ANNOTATSIYA: Surxondaryo viloyati qadimiy va boy tarixga, so'lim va bahavo maskanlarga ega. Shu sababli ham viloyat hududida insoniyat qadimdan o'troq holatda hayot kechirganligi, viloyat hududida qadimiy davlatlar va imperiyalar vujudga kelganligi, hudud tabiati, geologiyasi va geomorfologiyasi, aholisi va xo'jaligi, arxitekturasi va dizaynini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarni vujudga keltirgan.

Surxondaryo viloyati hududining asosiy qismi subtropik, shimoliy va shimoli-g'arbiy qismi mo'tadil iqlim mintaqasida joylashgan. Viloyat iqlimi xilma-xil bo'lib, janubiy tekislik qismida yog'ingarchilik miqdori kam ammo viloyatning tog'li va tog'oldi hududlarida yog'ingarchilik miqdori ko'p. Bu esa o'z navbatida, viloyatda agroiqlim resurslarining notekis taqsimlanganligidan dalolatdir.

Mazkur maqolada Surxondaryo viloyati tabiiy sharoiti, tabiiy dam olish maskanlari hamda iqlimiy omillarning xususan, mineral buloqlarning shifobaxshlik xususiyatlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Turli kartalar va iqlimiy ko'rsatkichlar tahlil qilingan.

KALIT SO'ZLAR: *tabiiy sharoit, yer osti suvlari, mineral buloq, bahavo maskanlar, tabiiy yodgorliklar, gidrometeorologik stansiyalar, viloyat hududining orografik tuzilishi.*

МЕДИЦИНСКОЕ ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ ПРИРОДНЫХ УСЛОВИЙ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

АННОТАЦИЯ: Сурхандарьинская область имеет древнюю и богатую историю, богатые достопримечательности. Именно по этой причине на территории провинции человечество издавна вело оседлый образ жизни, на территории провинции возникли древние государства и империи, что вызвало интерес к изучению природы, геологии и геоморфологии территории, населения и хозяйства, архитектуры и дизайна. Основная часть территории Сурхандарьинской области находится в субтропическом, Северная и Северо-Западная-в умеренном климатическом поясе. Климат провинции разнообразен, с небольшим количеством осадков в южной равнинной части, но большим количеством осадков в горных и предгорных районах провинции. Это, в свою очередь, свидетельствует о неравномерном распределении агроклиматических ресурсов в регионе.

В данной статье представлена информация о природных условиях Сурхандарьинской области, природных зонах отдыха и климатических факторах, в частности о целебных свойствах минеральных источников. Были проанализированы различные карты и климатические показатели.

КЛЮЧЕВЫЕСЛОВА: *природныеусловия,подземныеводы,минеральныеисточники,достопримечательности, памятники природы, гидрометеостанции, орографическое строение территории области.*

MEDICAL GEOGRAPHICAL DESCRIPTION OF THE NATURAL CONDITIONS OF SURKHANDARYA REGION

ABSTRACT: Surkhandarya region has an ancient and rich history, lush and cool resorts. For this reason, the fact that humanity has lived in a more remote state on the territory of the region since time immemorial, ancient States and empires have formed on the territory of the region, giving rise to interests in the nature, geology and geomorphology of the territory, population and economy, architecture and design. The main part of the territory of surkhandarya region is subtropical, the northern and northwestern part is located in the temperate climate region. The climate of the province is diverse, with low rainfall in the southern lowland part but high rainfall in the mountainous and mountainous areas of the province. This in turn is a sign of the uneven distribution of agro-climate resources in the region.

This article presents information about the natural conditions of Surkhandarya region, natural resorts and climatic factors, in particular, the healing properties of mineral springs. Various cards and climatic indicators have been analyzed.

KEYWORDS: *naturalconditions,groundwater,mineralspring,coolestmasks,naturalmonuments,Hydrometeorological stations, orographic structure of the territory of the region.*

KIRISH. Yer osti suvi qaysi davr tog‘ jinslari qatlamlarida joylashganligiga qarab aniqlanadi va shu davr nomi bilan yuritiladi. Masalan: bo‘r, trias, toshko‘mir, devon davri jinslaridagi suvlar va hokazolar[Шерматов М.Ш., Умаров У.У., Рахмедов И.И. “Гидрогеология”. Дарслик-Т.:Университет, 2011. 291 бет.]. Mineral suvlar tarkibida temir, brom, yod, litiy, oltingugurt, radioaktiv va boshqa elementlarning mavjudligiga qarab suvlarning shifobaxshligi belgilanadi.

Surxondaryo artezian suv havzasi mamlakatimiz janubida, Hisor tog‘ tizmalarining janubiy yonbag‘irlarida joylashgan bo‘lib, umumiy maydoni 14000 km2 ga teng. Suvli qatlamlar asosan qalinligi 300-950 m bo‘lgan to‘rtlamchi davr allyuvial, allyuvial-prolyuvial jinslari oralig‘ida, neogen (N2) davrining qalinligi 2000-3500 metrdan iborat bo‘lgan, alevrolit, qumtosh, grovelit, konglomerat jinslari, paleogen (R) davrining, qalinligi 700 metrdan oshiq bo‘lgan qumtosh, ohaktosh, dolomit jinslari, bo‘r (k) davrning, qalinligi 1500-3500 m bo‘lgan, qumtosh, ohaktoshlar majmualaridan o‘rin olgan.

To‘rtlamchi davr tog‘ jinslari qatlamlarida bosimli suvlar 70-120 m, neogen davri jinslarida 40-300 m, paleogen davri yotqiziqlarida 11 dan 1880 m.gacha, bo‘r davri jins tuzilmalarida (Uchqizil, Lalmikor, Kakaydi, Jayronxona va boshqalar) 750-2300 m chuqurliklarda burg‘u quduqlari yordamida ochilgan. Suvlarning minerallik darajasi to‘rtlamchi davr yotqiziqlarida 1-2 dan 70 g/l gacha borishi, neogen va paleogen davri yotqiziqlaridagi suvlarda 1-45 g/l oralig‘ida o‘zgarishi kuzatilgan. Yura davri jinslaridagi suvlarning minerallashishi ancha yuqori bo‘lib, 314 g/l boradi. Paleogen yotqiziqlaridan chiquvchi suvlarning harorati 45-47°C hatto 50°C ga teng (Jayronxona).

Qadimdan viloyat hududidagi tabiiy resurslar va ulardan foydalanishga bo‘lgan qiziqishlar yuqori bo‘lgan. Hududdagi shifobaxsh suvlar (yodobromli, seravodorodli, oltingugurtli), bahavo maskanlar, tabiiy yodgorliklar (g‘orlar, sharsharalar), issiq qumlar (qum muolajasida qo‘llaniladi), shifobaxsh o‘simliklar, hayvonlardan olinadigan turli dorivorlar orqali insonlar kasalliklarga shifo topganlar. Bundan ko‘rinib turibdiki, viloyat hududidagi tabiiy resurslar ma’lum bir tibbiy xususiyatlarga ega ekanligini anglatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. XX asrda olib borilgan keng ko‘lamli tadqiqotlar natijasida viloyat hududidagi tabiiy-geografik, gidrogafik, turistik va boshqa obyektlar keng o‘rganildi. Chor Rossiyasi mustamlakasi davrida viloyat geografiyasi va geologiyasiga oid dastlabki ma’lumotlar G.Romanovskiy (1884-1890), V.N.Veber (1909), Ya.S.Edelshteyn (1909), I.V.Mushketov (1915) ishlarida bayon etilgan [2; 41-b.].

Viloyat hududining geomorfologik tuzilishiga oid tadqiqotlar A.R.Burachek (1934, 1937), V.A.Vaxramyev, P.P.Chuenko (1937), P.K.Chixacheva, N.P.Kostenko (1948,1953,1962), O.Yu.Poslavskaya (1958, 1959, 1961, 1962, 1963), T.V.Zvonkova (1965), A.A.Yurev ilmiy ishlarida bayon qilingan.

Surxondaryo viloyati iqlimi haqidagi ma’lumotlar Ye.N.Balashevning (1962) ishlarida aks ettirilgan. O‘lkaning ob-havosiga oid ma’lumotlar V.A.Jorjio (1935) ishlarida berilgan. O‘rta Osiyoda atmosfera sirkulyatsiyasiga oid tadqiqotlar V.A.Bugaev (1957, 1962) tomonidan o‘rganilgan. Viloyatda iqlim elementlarining taqsimlanishi va iqlimiy ko‘rsatkichlarga oid ko‘rsatkichlar R.R.Simmerman (1926), L.A.Molchanov (1934,1936), Ye.N. Balashev, O.M.Jitomirskiy (1960), L.N.Babushkin (1948, 1949,1956, 1960, 1961, 1962, 1963, 1964), O.A.Semyonova, G.N. Lepuxina (1965), hamda A.V. Xisomovlarning (1965,1968) ishlarida bayon qilingan. Surxondaryo viloyati gidrografiyasiga oid tadqiqotlar A.G.Ananyev (1911, 1924), M.A.Shmid (1933, 1937), V.L.Shuls va L.I.Shalatova (1961), O.P.Sheglova (1961), T.Shoto‘rayev (1968, 1970) ilmiy ishlarida aks etgan [2; 42-b.].

Viloyatda XX asrning 70-80-yillarida bir qancha keng ko‘lamli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Amalga oshirilgan tadqiqotlar davomida viloyat hududidagi geologik va geomorfologik jarayonlar, balki relyef, iqlim, tuproq va suv resurslaridan foydalanish masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar ham muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu tadqiqotlarda bir qancha geologlar, geograflar, geobotaniklar, gidrologlar, zoologlar va boshqa yo‘nalish vakillari ham munosib ishtirok etishdilar.

Viloyat relyefining hozirgi holati yaqin geologik o‘tmishga borib taqaladi. Bu yerda barcha morfologik tip (tekislik, daryo va soy vodiylari, adirlik, tog‘ yon bag‘ri, tog‘lik va baland tog‘lar)lar mavjud. Viloyat hududi yer yuzasining tuzilishiga ko‘ra tekisliklar va tog‘oldi-tog‘lardan iborat. Viloyat relyef shakli shimoli-sharqdan janubi-g‘arbga va o‘z navbatida atrofdagi tog‘lardan markazga tomon pasayib boradi. Viloyatdagi tog‘larda doimiy qorlar yil davomida saqlanib qolsa, cho‘llarda yil bo‘yi issiq va quruq iqlim hukmronlik qiladi.

Surxondaryo viloyatida ob-havoni kuzatish va tadqiq qilish uchun viloyat gidrometeorologik boshqarmasi (Termiz shahrida), tumanlarda gidrometeorologik stansiyalar va gidrologik postlar mavjud. Ularda yog‘ingarchilik, shamol, harorat, namlik kabi jarayonlar muntazam kuzatiladi va tahlil qilinadi.

Viloyat iqlim xaritasini tahlil qilib, yog‘ingarchilik viloyat bo‘yicha notekis taqsimlanganligini ko‘rishimiz mumkin. Muzrabot, Angor, Termiz tumanlari va Termiz shahrida yillik yog‘in miqdori 200 mm.dan kam. Sherobod, Qiziriq, Bandixon, Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on, Sho‘rchi tumanlari hamda Oltinsoy, Denov, Uzun tumanlarining tekislik qismlarida 200-400 mm atrofida yog‘in yog‘adi. Boysun, Uzun, Oltinsoy va Denov tumanlarining tog‘li hududlariga yiliga 400-800 mm yog‘in yog‘sa, Sariosiyo tumani hamda Machay daryosining yuqori qismida 800 mm.dan ko‘p yog‘in tushishini ko‘rishimiz mumkin.

Yanvar oyining o‘rtacha harorati Termizda +3,0єC

bo'lsa, Sherobodda +4,8єC ni tashkil etadi. Yozda faslida viloyatning tekislik qismi isib ketib, jazirama issiq va quruq kunlar kuzatiladi. Iyul oyining o'rtacha harorati +29 єC, +32 єC bo'lib, eng yuqori harorat +42єC, +49єC darajani tashkil etadi. Viloyatning janubiy qismida uning shimoliga nisbatan iyulning o'rtacha havo harorati ko'rsatkichi o'rtasida birmuncha farqlar mavjud. Jumladan Denovda bu ko'rsatkich +31,1єC, Boysunda +28,3єC, Termizda +33,2єC va Sherobodda 33,5єC gacha o'zgaradi [16; 80-b.]. Ba'zan qishda sovuq havo massalari tog'lardan o'tib viloyatning tekislik qismi haroratini -20єC, - 24єC gacha pasaytirib yuboradi.

Viloyatda yoz issiq va jazirama kunlarning ko'pligi bilan boshqa hududlardan farq qiladi. Viloyatning ayrim hududlarida o'simliklar vegetatsiya davri yil bo'yi davom etadi, yoz esa olti oy (apreldan-oktabr)gacha cho'ziladi. L.N.Babushkinning ma'lumotiga ko'ra, 1912 yilning 8 iyulida Termizda havoning harorati 50єC, 1915 yili 21 iyulda 49,6єC ga kuzatilganligi qayd etilgan. Cho'llarda qumlar yuzasidagi harorat 65єC, ba'zan 70-75 єC gacha ko'tariladi.

Haroratning yuqori bo'lishi inson organizmida turli kasalliklarning vujudga kelishiga yoki rivojlanishiga sabab bo'ladi. Yozning issiq kunlarida issiq va dim havoning kuzatilishi natijasida organizmi zaif, qon bosimi yuqori bo'lgan insonlar orasida o'lim holatlari ko'p kuzatiladi. Shuningdek, yuqumli kasalliklarni tashuvchi turli hashoratlarning faollashuvi natijasida kasalliklar chegarasi ortadi. 2019-yilda Avstraliya tibbiyot assotsiatsiyasi "Iqlim o'zgarishi sog'liq uchun favqulotda holat" deb e'lon qilganligidan ham bilish mumkinki, havo haroratining ko'tarilishi inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Viloyatda yog'inlarning 44,3 foizi bahor faslida, 45,9 foizi qish faslida, 9,0 foizi kuz faslida va 0,8 foizi yoz faslida tushadi. Viloyatning shimoliy hududlarga janubiy qismiga nisbatan yillik yog'in-sochin miqdori 4-5 marta ko'p tushadi. Jumladan, viloyatning shimoliy zonasida joylashgan Sharg'un shahrida janubda Amudaryo bo'yida joylashgan Navshaharga nisbatan 4,8 marta ko'p yog'in yog'adi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Viloyat hududining murakkab orografik tuzilishga ega ekanligi bu yerda havo harorati va yog'in miqdorining taqsimlanishidagi tafovutlar, qishloq xo'jaligi tarmoqlarining hududiy joylashishi va ixtisoslashuviga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Jumladan daryo vodiylari va tekisliklarda sug'orib ekishga tayangan dehqonchilik va qoramolchilik, yog'in-sochin nisbatan ko'proq tushadigan tog' yonbag'irlari va adirliklarda lalmikor dehqonchilik, yaylov chorvachiligi va parrandachilik, iqlimi nisbatan yumshoq, yog'in-sochin ko'p tushadigan tog'li hududlarda esa mevachilik (olma, jiyda, yong'oq, do'lana, bodom, pista, nok yetishtirish) mahsulotlarini yetishtirish keng rivojlantirilgan [2; 89-b.].

Viloyatda yoz oylarida g'arbiy, janubi-g'arbiy, qish oylarida shimoli-sharqiy tomonlardan shamollar ko'p esadi. Viloyat janubiy qismining iqlimiga janubi-g'arbdan esuvchi chang-to'zonli quruq "Afg'on" shamoli salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'rta Osiyoning tekislik qismiga sovuq havo massalarining kirib kelishi va sovuq frontning yaqinlashishi "Afg'on" shamolining vujudga kelishiga sababchi bo'lgan.

"Shimoldan esgan sovuq havo massalari zich va og'ir bo'lganligidan Parapamiz tog'laridan o'ta olmay, tekisliklarda to'planib, yuqori bosimli markazi vujudga keladi. Hisor va Ko'hitang tog'lari bilan to'silgan Surxondaryo, Kofirnihon, Vaxsh havzalarida esa havo iliq, bosim past bo'ladi. Shunga ko'ra, bu hududlarga qarab kuchli g'arbiy va janubi-g'arbiy shamollar esadi. Bu shamol janubi-g'arbiy yo'nalishda Afg'oniston tomondan esgani uchun mahalliy xalq uni "Afg'on shamoli", Afg'onistonda "kara-buran" ya'ni "qora bo'ron" deb ataladi va Amudaryo havzasining yuqori qismida kuzatiladi. Afg'on shamoli bir tomondan, janubi-g'arbdan siljib keladigan va Hisor tog' tizmasi oralig'ida siqilib harakatlanadigan iliq havo massasining shimoli-g'arbdan keladigan sovuq havo frontining aerodinamik tezlashuvi oqibatida paydo bo'ladi va yiliga 30-70 kun esadi [3].

Bu shamol tog'lardan oshib tushib, qishda iliq havo, boshqa vaqtlarda esa issiq havo keltiradi. Uning tezligi ayrim vaqtlarda sekundiga 15-20 metrga yetadi, qum va changni to'zitadi, ba'zan havoni shu qadar xiralashtiradiki, 100-200 m naridagi hech narsani ko'rib bo'lmaydi. Bu shamol bahorda esganda qishloq xo'jaligiga juda katta zarar yetkazadi" [4; 73-b.].

Afg'on shamoli o'ziga xos meterologik hodisalar yordamida kuzatiladi. Afg'on shamoli esishidan 1-2 kun avval sharqdan esgan kuchsiz shamol natijasida dastlab siyrak chang paydo bo'lib, asta-sekin quyuqlashib boradi. Havo harorati ko'tariladi, nisbiy namlik esa keskin kamayadi. Atmosfera bosimi pasayadi. Havo frontining yaqinlashuvi bilan girdob va quyunlar hosil bo'ladi, so'ngra to'satdan 15-20 m/s va undan ortiq tezlikda esadigan to'zonli bo'ron afg'on shamoli vujudga keladi. Afg'on shamoli aksariyat garmsel (fenga o'xshash quruq va issiq shamol) davrini yakunlaydi.

Viloyat hududida afg'on shamoli tez-tez takrorlanib turadi. Surxondaryo viloyatida "Afg'on shamoli" yetkazgan talofatlar anchagina bo'lib xalq xo'jaligiga katta zarar etkazadi. Kuchli shamollar ba'zan ekinzorlarni qum bilan ko'mib tashlaydi yoki tuproqning unumli qatlamini uchirib ketadi. Shamol tarkibida mayda qum va chang zarralari mavjud bo'lib, aholi salomatligiga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Chang har qanday modda va jismlarning muallaq holatda turadigan qattiq mayda zarrachalardir. Changning asosiy ta'siri eng avvalo nafas olganda bilinadi. Changli havo bilan nafas olish asosan nafas organlarining zararlanishi; bronxit, prevmakoniz yoki umumiy zararlanish rivojlanishini vujudga keltirishi mumkin. Ba'zi changlar qo'shimcha kasalliklari keltirib chiqarish xususiyatiga ega. Bular yuqori

nafas yo'llari, ko'zning shilliq qavati, teri qoplami kasalliklari kiradi. Changning o'pka yo'liga kirishi pnevmoniya ya'ni, sil o'pka rakining kelib chiqishiga sharoit yaratadi. Bu chang ayniqsa homiladorlar, emizikli ayollar, qariyalar, allergiyasi borlar, surunkali bronxitlar va bolalar sog'ligi uchun juda xavfli. Har yili Afg'onistonda havo ifloslanishi bilan bog'liq kasalliklardan odamlar nobud bo'ladi. Afg'oniston sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil shamol ta'sirida havoning ifloslanishi oqibatida vujudga keltiruvchi kasalliklar qatorida yurak va o'pka xastaliklaridan 5000 ga yaqin odam vafot etgan[Abdimominov T.A., Hamrayeva D.Kh., & Eshboyev A.Kh. (2023). Issues of using afghani wind in surkhandarya region. Экономика и социум, (3-1 (106)), 7-13.].

Surxondaryo viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra viloyatda nafas olish a'zolari kasalliklari bilan jami 2018-yilda 32 565 nafar, 2019-yilda 336,1 ming kishi, 2020-yilda 316,5 ming kishi, 2021-yilda 333,7 ming kishi, 2022-yilda 245,4 ming nafar kishi kasallangan.

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatib turibdiki, viloyatning tekislik qismida joylashgan Sherobod, Muzrabot, Qiziriq, Bandixon, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Termiz tumanlari va Termiz shahrida nafas olish a'zolari kasalligi bilan kasallangan bemorlar soni ko'pchilikni tashkil qiladi. Bunga asosiy sabab Amudaryo orqali viloyat hududiga kirib keluvchi "Afg'on shamoli"dir. U Amudaryoning janubiy qismidagi va Surxondaryo viloyati Kattaqum massividagi qumlarni uchirib atmosfera havosini ifloslaydi.

Shuningdek, Denov tumanida ham nafas olish a'zolari kasalliklari bilan kasallanish holatlari viloyat o'rtacha ko'rsatgichlaridan ham yuqori ekanligini kuzatdik. Bunga asosiy sabablardan "Afg'on shamoli"ning viloyatning shimoliy qismiga girdob shaklda to'planishi va Denovdagi sanoat korxonalaridan chiqayotgan changlar va har xil zararli gazlardir. Shuningdek, Denov shahrini kesib o'tgan Denov arig'i va Qizilsuv daryosining chiqindixonaga aylanib qolganligi, bu yerdagi badbo'y hidning shahar va uning atrofida yashovchi aholi salomatligiga salbiy ta'sirini sezish qiyin emas, albatta.

Aksincha hududining asosiy qismi tog' va tog'oldi tekisliklaridan iborat bo'lgan Oltinsoy va Sariosiyo tumanlarida nafas olish kasalliklari bilan kasallangan bemorlar soni viloyat o'rtacha ko'rsatgichidan 2-3 barobar kam ekanli kishini xursand qiladi.

Surxondaryo viloyati yer usti suv resurslari bilan yaxshi ta'minlangan. Viloyat hududida 2 ta katta daryo (Surxondaryo va Sheroboddaryo), 5 ta suv ombor va 3 ta yirik kanal joylashgan.

Bo'r davri yotqiziqlari orasidagi yer osti suvlari 1000-2000 metr chuqurlikda uchraydi va ular minerallashgan, shifobaxshlik xususiyatiga ega, termik suvlar hisoblanadi. Ularning harorati 60єC-70єC gacha bo'ladi.

Viloyatda yer osti suv zaxiralarining katta qismi neogen jinslari orasida uchraydi, ular 140-150 m chuqurlikdan chiqib yuqori haroratga egaligi bilan ajralib turadi.

Jarqo'rg'on va Termiz tumanlari chegarasida Jayronxona sihatgohi joylashgan bo'lib, Uchqizildagi 2100 metr chuqurlikdan chiquvchi serovodorod mineral suvi sihatgohga quvur orqali olib kelingan, harorati 70єC dan yuqori. Viloyatda Kakaydi, Lalmikor, Uchqizil, Xovdog', Eski Termiz, Omonxona, Xo'jaipok, Bobotog', Xo'jamayxona, G'o'rimbuloq kabi hududlardan chiqadigan buloq suvlari shifobaxsh xususiyatga ega.

XULOSA. Mineral suvli buloqlar o'z tarkibida ma'lum darajada mineral tuzlar bo'lgan va tibbiyotda ma'lum kasalliklarni davolashda, inson tanasiga va ichki organlariga ta'sir ko'rsatuvchi suvlar hisoblanadi. Mineral suvlar tarkibida bir qancha elementlar mavjud bo'lib, shu elementlarning miqdoriga qarab suvlarning shifobaxshlik xususiyati aniqlanadi va tibbiy nuqtayi nazardan foydalanishga tavsiya etiladi.

Shifobaxsh suvlar yordamida sanatoriyalarda suv vannalari orqali iste'mol qilish va mineral suvli balchiqda davolash yo'lga qo'yilgan bo'lib, bunda bemorning kasalligi aniqlangandan so'ng muolaja qo'llaniladi. Bunday muolajadan sanatoriyalarga kelgan bemorlar shifo topib ketmoqdalar.

Surxondaryo viloyatidagi barcha tabiiy resursning o'ziga xos xususiyati bor. Hattoki tuproq ham tabobatda uzoq yillardan buyon ayrim kasalliklarni davolashda qo'llanilib kelinadi. Masalan, bo'g'im og'rig'i kasalliklari bilan kasallangan bemorlar quyosh nurida qizigan och tusli bo'z tuproq ustida ma'lum vaqt yuradilar yoki qizil tusli qumga ma'lum bir muddat ko'mib qo'yiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, viloyatdagi tabiiy resurslar tibbiyotda muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Шерматов М.Ш., Умаров У.У., Рахмедов И.И. "Гидрогеология". Дарслик-Т.:Университет, 2011. 291 бет.

2. Abdunazarov H.M., Umarova M.H. Surxondaryo geografiyasi. O'quv qo'llanma. Termiz-2023.178 bet.

3. Petrov Y.V., Egamberdiyev H.T., Alautdinov M., Xolmatjonov B.M. "Iqlimshunoslik". Toshkent, "Nashr" –2010.

4. Ҳасанов И.А., Ғуломов П.Н., Қаюмов.А.А. "Ўзбекистон табиий географияси" (2- қисм). Ўқув қўлланма.-Т.: Ўқитувчи, 2009.

5. Abdimominov T.A., Hamrayeva D.Kh., & Eshboyev A.Kh. (2023). Issues of using afghani wind in surkhandarya region. Экономика и социум, (3-1 (106)), 7-13.